



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 24-yanvar, seshanba,
9 (23.730)-son

**KUN
HIKMATI**

Xatoni sezish
qiyin emas,
ammo uni
tan olish juda
mushkul ish

1913-yil aprel oyidan chiqqan boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident qaroriga ko'ra

“O'pka salomatligi” mobil brigadasi bepul tibbiy ko'rik o'tkazadi

Shu yilning 20-yanvar kuni davlat rahbari tomonidan “2023-2026-yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror qabul qilindi.

Unga ko'ra, sohada yaxlit vertikal tizimning tuman bo'g'inini yaratish maqsadida tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar tarkibidagi ftiziatriya bo'limlari va xonalari negizida mavjud ftiziatr va pulmonolog shtat birliklari doirasida ftiziopulmonologiya bo'limlari tashkil etiladi.

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida faoliyat yuritadigan bosh pulmonolog shtatlari shifo o'rni fondi qoldirilgan holda hududdagi ftiziatriya va pulmonologiya markazlariga

o'tkaziladi.

Tungi uyqu sifati va nafas olish funksiyasi buzilishlarini tashxislash va davolash maqsadida hududiy ftiziatriya va pulmonologiya markazlarida “Uyqu apnoe” markazlari tashkil qilinadi.

2023-yil 1-martga qadar tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari tomonidan birlamchi tibbiyot muassasalariga birlashtirilgan aholi orasidan tuberkulyoz bilan kasallanishga moyilligi bo'lgan xavf guruhiga mansub shaxslar ro'yxati tuziladi.

2023-yil 1-martga qadar Ftiziatriya kasalliklarining yagona elektron reestri ishlab chiqiladi.

“O'pka salomatligi” mobil brigadasi doirasida hududlardagi olis, chekka, ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholiga bepul tibbiy ko'rik doirasida skrining tadbirlari o'tkaziladi.



PIYOZ NARXI NEGA OSHDI?

BUNGA SOVUQ SABABMI YOKI MAHSULOT TANQISLIGI?

Shu kunlarda bozorlarimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari, ayniqsa, piyozning narxi keskin oshib ketdi. Kimdir narx oshishiga anomol sovuqni sabab qilib ko'rsatasa, boshqalar mahsulotning kamligi, amalda faqat qog'ozlarda hisobot uchun mahsulotlar zaxirasi yaratilganligini aytishmoqda.

Xo'sh, bugun viloyatimizda piyoz mahsulotining zaxirasi qanday? Viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatimizdagi dehqon bozorlari tomonidan 1023 tonna piyoz zaxiraga jamg'arilgan va narx-navo oshib ketishining oldini olish uchun mahsulotni yanvar-may oylarida savdogacha chiqarish mo'ljallangan.

Hozirda viloyatimizda 4 million 118 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Har kishiga yil davomida 34 kilogramdan piyoz iste'mol normasi bo'yicha qaraydigan bo'lsak, viloyatimiz aholisi ehtiyojini qoplash uchun bir yilda 140 ming tonnadan ziyod, uch oyga esa 35 ming tonnadan ortiq piyoz mahsuloti talab etiladi. Hozir viloyatimizdagi omborxonalarda 11 400 tonnaga yaqin piyoz saqlanmoqda va aholi ixtiyorida yana 26 400 tonnaga yaqin mahsulot mavjud. Hisob-kitoblarga ko'ra, yana 2732 tonna mahsulot yetishmaydi. Yetishmaydigan mahsulotni xorijiy davlatlardan import qilish hisobiga qoplash rejalashtirilgan. Ammo viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasidan piyozni qaysi davlatdan, kimlar import qilishi bo'yicha birorta ma'lumot olishning imkonini bo'lmadi.

O'XUDYBERDIYEV.

OIV infeksiyasi bo'yicha majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayoni elektron tizim orqali amalga oshiriladi

Davlat rahbari tomonidan 2023-yil 20-yanvarda “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror qabul qilindi.

Qaror bilan aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Sog'liqni saqlash vazirligiga:

2027-yilda OIV infeksiyasini yuqitirib olgan hamda o'z maqomini bilgan, maxsus davolash kurslari bilan qamrab olingan va qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushgan shaxslar ko'rsatkichi 95 foizga yetka-

zilashtirishini; OIV infeksiyasining onadan bolaga yuqishiga barham berilishini ta'minlash topshirildi.

Nikohlanuvchi shaxslarni OIV infeksiyasi bo'yicha majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayonini elektron tizim orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yish maqsadida Adliya vazirligi bilan birgalikda 2023-yil 1-iyungacha qadar Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatida, 2023-yil yakuniga qadar esa boshqa hududlarda “Elektron hukumat”

tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali FHDY organlari va tegishli tibbiyot muassasalari o'rtasida elektron hamkorlik tashkil qilinadi.

2023-yil yakuniga qadar OIV infeksiyasi aniqlangan holatlar monitoringini ta'minlash, real vaqt rejimida preparatlar va diagnostikumlarining harakatlanishini kuzatib borish imkonini beruvchi elektron axborot tizimi yaratiladi. Ushbu tizimni Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining elektron bazalari bilan integratsiya qilish orqali o'zaro axborot almashinuvi yo'lga qo'yiladi.

Viloyat sudlari vakolatlari kengaytirilmoqda



Keyingi yillarda sud-huquq islohotlarida yangi davr boshlandi. Prezidentimizning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida bu islohotlar izchil davom ettirilishi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, 2023-yil ham qonunchilikda sarmahsul va samarali boshlandi. Olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining davomi sifatida Prezidentimiz 10-yanvar kuni “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonni, shuningdek, ushbu farmon ijrosini samarali ta'minlash maqsadida “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonni imzoladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>



Xalqimizda “Dunyoni obod qiladigan ham, barbod qiladigan ham inson, insonni odam qiladigan insof!”, degan hikmat bor. Ba'zan insof haqida gapirib, lekin uning nima ekanligini unutib qo'yamiz.

INSOFING BORMI?

Menimcha, insof – haddan oshmaslik, shukur qilish, qanoatli bo'lish... Afsuski, oramizda bu tushunchalardan yiroq noinsolik kimsalar ham uchrab turadi.

“Sayyor qabulda muammo oson hal bo'ladi-da. Har safar hokim qabuliga kirib, masalani shartta aylaman, shu yerning o'zida mas'ul rahbar muammodan xabardor qilinadi va masala tezda ko'rib chiqiladi”.

Mashinaga o'tirganimdan so'ng o'rta yoshlardagi yo'lovchining suhbatdoshiga aytgan bu gapni quloqimga qo'ng'iroqday chalindi.

- Bugun nima masalada murojaat qildingiz? - so'radi yo'lovchi sherigidan.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun yer so'ragandim, 10 yilga 15 sotix yer auksion orqali ijaraga beriladigan bo'ldi.

- Ha, yaxshi bo'libdi. Endi hal bo'lmagan masalangiz qolmagandir?..

- Nega endi, bor-da. Uyimda yong'in chiqqandan keyin bolalarim bilan bir uyda turib qoldik. Shunga o'zimga shinamroq bir uy qurib berishsa, yaxshi bo'lardi.

Manzilga kelguncha hokimga murojaat qilgan amaki muammolarini aytib nolib keldi. U taksidan tushgach esa suhbatdoshi gap boshladi.

- Bu kishi bizning mahalladan, yaxshi taniyman. Ishlayman, desa ish ko'p, lekin hech qayerda ishlamaydi. Qachon qarasa, hokimiyatning eshigida bir muammosi bilan turgan bo'ladi. To'g'ri, yaqinda uyda yong'in chiqqandi, hokimiyat uyini ta'mirlashda yordam qildi. Qiynalib qolishmasin, deb farzandining kontraktini to'lab, ro'zg'ori uchun sog'in sigir ham olib berishdi. Biroq bu odamning muammosi tugamaydi. Bordi-yu, biror murojaati rad etilsa, olamga jar soladi.

Mahalladagilarning ham ensasi qotgan. Hozir sayyor qabulda ish topib berilsa ham ishlamaydi, qachongacha davlat yordam beradi, har yili yordam berasizlar, nega ishlamaydi, to'rt muchasi sog' bo'lsa, beraversangiz yeb yotaveradi-da, o'ziga esa “Insofing bormi, noinsof!” qabilidagi gaplar ko'p bo'ladi. Ammo, qayda...

Insofsiz rahbar, insofsiz sotuvchi, insofsiz soliqchi, insofsiz organ xodimi, degan gaplarni ko'p eshitamiz. Ayrim odamlarning davlatdan, hokimiyatdan shaxsiy manfaat ilinjida o'zini har ko'yga solib, turli narsalar talab qilishi, berilgan yordamga qanoat qilmay, to'rt muchasi sog' bo'lib, ham o'zini bechora ko'rsatishi noinsoflik emasmi? Ko'ngilni xira qiluvchi bunday holatlarni kuzatib, yoqasini tutadi odam. Nahotki, oriyatdan, andishadan uzoqlashib ketdik.



Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Hukumat qaroriga ko'ra

“To'maris izdoshlari” jamoaviy guruhlari faoliyati yo'lga qo'yiladi

“Ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari huzuridagi “To'maris izdoshlari” jamoaviy guruhlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hukumat qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-iyundan yoshi 18 dan kichik va 30 dan katta bo'lmagan, umumiy o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotli, birlashtirilgan hududda doimiy yashovchi hamda muloqotga kirishuvchan va tashkilotchilik qobiliyatiga ega xotin-qizlarni ko'ngilli asosda jalb qilish orqali “To'maris izdoshlari” jamoaviy guruhlari faoliyatini tashkil etiladi.

Mazkur guruhlarning asosiy vazifalaridan biri o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida o'qiyotgan qizlarning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan hamda ularning huquq va manfaatlari buzilishi bilan bog'liq masalalarni aniqlashda ko'maklashish hisoblanadi.

Guruhlar respublikaning barcha tuman (shahar)larida 2 nafardan (kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan tuman (shahar)larda 3 nafardan) ichki ishlar organlari xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari huzurida shakllantiriladi.

Guruh a'zolari 1 yil davomida o'qish va ish jarayoniga salbiy ta'sir etmagan holda umumiy 360 soat vaqt mobaynida faoliyat olib boradi.



@salom_migrant_bot

Endilikda samarqandlik mehnat muhojirlari ham mazkur botga o'zlarini qiziqtirgan masala va muammolar bilan murojaat etishlari mumkin. Fuqarolar faqatgina onlayn murojaat qilib qolmay, to'g'ridan-to'g'ri mutaxassislar bilan uchrashishlari ham mumkin.

Samarqanddagi “Do'stlik uyi”da Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha viloyat hududiy komissiyasi, AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) “Istiqbolli avlod” nodavlat notijorat tashkiloti bilan hamkorlikda migrantlar hamda ularning oila a'zolari uchun ikkinchi axborot-maslahat markazi tashkil etildi.

Mazkur markaz mehnat migrantlarini chet elda odam

savdosi jabrlanuvchisi bo'lishining oldini olish uchun axborot bilan ta'minlaydi. Shuningdek, qaytib kelgan migrantlar va ularning oila a'zolariga huquqiy maslahatlar beradi, kasb-hunar ta'limini tashkil qiladi va psixologik xizmat ko'rsatadi.

- 2022-yilda shunday axborot-maslahat markazi Jizzaxning Sharof Rashidov tumanida tashkil etilgan edi, - deydi markaz ochilish marosimida USAIDning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakili Fey Xaselkorn. - O'shandan beri Jizzax markazi odam savdosining potensial jabrlanuvchilari va migrantlar oilalarining 120 ga yaqin murojaatlarini o'rgandi, odam savdosidan jabr ko'rgan 16 kishining vataniga qaytishiga yordam ko'rsatdi. Boshqa murojaatchilarga maslahatlar berildi, huquqiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi.

Zubaydullo MIRMAXMADOV.

Viloyat sudlari vakolatlari kengaytirilmoqda

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Bu hujjatlarda sud tizimini keskin isloh qiluvchi o'zgarishlar mustahkamlangan.

"Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon bilan sud-huq qchizimining jadal isloh qilinishini ta'minlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish maqsadida 2023-2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi hamda ushbu strategiyani amalga oshirish bo'yicha harakatlar dasturi ham tasdiqlandi.

Strategiya doirasida odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari etib "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolati sud tizimini shakllantirish, adolati sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalarning siyosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishga erishish qayd etildi.

Fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlar yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va tarafdinlikning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yogba chiqarish, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, Farmonda sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish nazarda tutildi. Sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari

va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish, sudyalarning va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali aholida suddan va davlatdan rozilik hissini uyg'otish belgilandi.

Murojaatnomada davlatimiz rahbari fuqarolarning sud-ma-sud saron bo'lishlariga barham berilishi, viloyat sudlarining odil sudlovni amalga oshirish borasidagi vakolatlari yanada kengaytirilishini bayon qilgan edi. Viloyat sudlari vakolatlari kengaytirilishining o'zi odamlarning qanchalar ovoragarchiliklariga barham beradi? Bu nimalarda ko'rinadi?

Sud qarorlari qonuniy, asosli va adolatli qabul qilinishini tekshirishning fuqarolarga qulay va soddilashtirilgan tartibini yaratish maqsadida mazkur Farmon bilan tumanlararo, tuman, shahar sudlari tomonidan birinchi instansiyada ko'rilgan ishlarni viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish vakolati berilmoqda. Bu tartib amalga oshirish bilan odil sudlovga erishishning imkoniyatlarini yanada kengaytirib, aholi ovoragarchiligini oldi olinadi. Endilikda birinchi instansiya sudning qaror yoki hukmidan norozi tarafdin viloyat sudiga apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat qilib, natijasidan qoniqmasa, adolat qaror topmadi, deb hisoblasa, ish mazkur sudlarda taftish tartibida qayta ko'rib chiqiladi.

Demak, har bir tomon rozi bo'ladigan, e'tiroz qolmaydigan darajada mukammal ko'rib chiqiladi va qonuniy xulosa qilinadi. Undan ham norozi bo'lgan taqdirdagina, o'z xulosa qilinadi.

viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar tomonidan taftish tartibida ko'rilgan ishlarni Oliy sudning sudlov hay'atlarida taftish tartibida qayta ko'rib chiqish belgilanmoqda.

Yuqori instansiya sudlari tomonidan ishni yangidan ko'rish uchun quyi sudlarga yuborish tartibini bekor qilish va ularga ish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish mas'uliyati yuklatilmoqda. Mana shu amaliyot ham albatta, o'zining ijobiy samarasini beradi. Chunki sud hujjatidan norozi odamlar yuqori instansiya sudiga katta umid bilan murojaat qiladi. Ular esa ishni yana quyi sudlarga qayta ko'rish uchun yuborishadi. Endilikda yuqori instansiyaning o'zi yakuniy to'xtatma kelishi kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, Farmonda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida ularning ishiga har qanday aralashuv qat'iy jazolanishi, sudyalarning xavotirsiz ishlashi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlar yaratilishi qayd etildi.

Sudning mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligini ta'minlashni kuchaytirish bo'yicha sudga hurmatsizlik qilish holatlarining oldini olishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, buning uchun ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirish va jinoiy javobgarlik belgilash, sud ishlarini hal etishga aralashganlik va sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashganlikka doir har bir jinoyat ishi yakuniy bo'yicha jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali majburiy ravishda xabardor qilish tartibini joriy etish belgilandi. Ya'ni, kimdir qaysidir yo'sinda sud ishiga aralashsa, turli ko'rinishda bosim yoki xalaqit bersa, javobgarlikka tortiladi. Mazkur ish natijasi esa, albatta, matbuotda keng yoritiladi.

Mamlakatimiz rahbarining ushbu Farmoni "Yangi O'zbekiston - yangi sud" tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sud-huq qchizimini isloh qilishni jadallashtirish, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish, sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini beradi.

Olim HAYITOV, Samarqand viloyati sudi raisi.



HUQUQIY MASLAHAT

VOZ KECHGAN ULUSHIMNI QAYTARIB OLMOQCHIMAN
- Men, o'tgan yili otamdan qolgan dala hovlidagi meros ulushimdan ukamning foydasiga voz kechgan edim. Endi o'sha ulushimni qaytarib olsam bo'ladimi?

S.HAYDAROV, Toyloq tumani.

- Fuqarolik kodeksining 1147-moddasida merosdan voz kechish keyinchalik bekor qilinishi yoki qaytib olinishi mumkin emasligi belgilangan. Shunga ko'ra, siz voz kechgan meros ulushingizni qaytarib oolmaydiz.

USTAMALAR BARCHA UCHUN EMASMI?

- Yanginda direktor jamg'armasidan o'qituvchilarga ustamalar belgilanishi haqida eshitdim. Ustamalar barcha o'qituvchilarga ajratiladimi yoki ma'lum toifalarga kiradigan o'qituvchilar uchunmi?

D.QURBONOVA, Payariq tumani.

- Qonunchilikka ko'ra, barcha davlat maktablari-direktor jamg'armasi tashkil etilishi belgilangan. Direktor jamg'armasi mablag'lari faqat o'qituvchilarga ustamalar belgilash uchun yo'naltiriladi. Ustamalar bilan maktabning o'quv-tarbiya jarayoniga katta shaxsiy hissa qo'shayotgan, o'z kasbiga sodiq va tashabbuskor, yuqori kasb darajasini namoyon etayotgan iqtidorli o'qituvchilar rag'batlantirildi.

Maktab xodimlariga direktor jamg'armasidan har oylik ustamalar va boshqa rag'batlantirishlar belgilash to'g'risidagi qarorlar maktab huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan qabul qilinadi. Bunda xalq ta'limi bo'limlarining maktablar huzuridagi maxsus komissiyalar faoliyatiga va ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

4 OY ISHLAB, MEHNAT TA'TILIGA CHIQUISH MUMKINMI?

- Ishga kirganimga endigina 4 oy bo'ldi. Biroq oilaviy sharoitim tufayli mehnat ta'tiliga chiqishimga to'g'ri kelmoqda. Aytinch, shunday yo'l tutsam bo'ladimi?

A.ZIYODOV, Narpat tumani.

- Mehnat kodeksining 143-moddasiga ko'ra, yillik asosiy ta'til birinchi ish yili uchun olti oy ishlengandan keyin beriladi. Ish yili mehnat shartnomasiga binoan ish boshlangan kundan e'tiboran hisoblanadi.

Quyidagi xodimlarga ularning xohishi bo'yicha olti oy o'tmasdan oldin beriladi:

- ayollarga - homiladorlik va tug'ish ta'tili oldidan yoki undan keyin;
- I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga;
- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga;
- muddatli harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilgan va ishga joylashgan harbiy xizmatchilarga;
- o'rindoshlik asosida ishlayotganlarga — asosiy ish joyidagi ta'til bilan bir vaqtda, o'rindoshlik asosida ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'lagan holda;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda umumiy ta'lim maktablarida, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, kadrlarning malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash institutlari va kurslarida o'qiyotganlarga, agar ular o'zlarining yillik ta'tillarini imtihonlar, sinovlar (zachyotlar) topshirish, diplom, kurs, laboratoriya va boshqa o'quv ishlarini bajarish vaqtiga to'g'ri kelishni xohlasalar;

- texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ishlar xususiyati o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishlangan ozod etilgan xodimlarga (100-modda ikkinchi qismning 1-bandi).

Maktablar, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlari, kadrlarning malakasini oshirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash institutlari va kurslarining muallimlar tarkibiga birinchi ish yilida yillik ta'til ularning mazkur o'quv yurtiga ishga kirgan vaqtidan qat'i nazar haqiqiy ishlagan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'lagan holda yozgi ta'til davrida to'liq beriladi.

Ta'til har yili, shu ta'til berilayotgan ish yili tugagan-ga qadar berilishi lozim.

Ishlab chiqarish tusidagi sabablarga ko'ra joriy yilda ta'tilni to'liq berish imkoni bo'lmagan alohida hollarda, xodimning roziligi bilan ta'tilning o'n ikki ish kunidan ortiq bo'lgan qismi keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin, shu yili undan albatta foydalanilmog'i lozim.

O'n sakkiz yoshga to'lmagan xodimlarga yillik ta'tilni, shuningdek, ushbu Kodeksning 137-moddasida ko'rsatilgan yillik qo'shimcha ta'tillarni bermaslik taqiqlanadi.

Yillik asosiy ta'til ikkinchi va undan keyingi ish yillari uchun ta'tillar jadvaliga muvofiq ish yilining istalgan vaqtida beriladi.

Jahongir ZOHIQOV, viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.

YOSHLAR YETAKCHILARI QANDAY ISHLADI?

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 19-yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, mahallalarda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv tizimi yaratildi. Har bir shaharcha, qishloq, ovul, mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Bu lavozimning tashkil etilishi nima berdi? Yangi tizimda yoshlar qanday ishladi? Yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli o'tdimi? Umuman, tizimda amalga oshirilgan ishlar xususida yoshlar ishleri agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Husan TO'XTAYEV bilan suhbatlashdik.

- Bu lavozimning joriy etilishi mahallada yoshlar bilan samarali ishlash, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarning qobiliyatlarini ro'yogba chiqarish hamda hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishda qo'l kelmoqda, - deydi H.To'xtayev. - Jumladan, o'tgan davr mobaynida yoshlar yetakchilari tomonidan o'tkazilgan xatlov natijasida 876 ming 528 nafar yoshlar balansi shakllantirildi. Xatlov natijasida ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari hamda bandligi ta'minlanmagan 44 ming 522 nafar yoshlar "Yoshlar daftari"ga kiritilib, 42072 nafari daftardan chiqarildi.

- Yoshlar yetakchilari ishni nimadan boshladi?

- Avvalo, tizimga salohiyatli yoshlarni jalb qilib, tushunchalar berdik, kerak bo'lsa o'qitdik. Keyin mahallalardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning ro'yxati shakllantirilib, daftarga kiritildi. Yoshlarning bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish maqsadida ko'rik-tanlovlarga, sport musobaqalariga jalb qilindi. Xususan, mamlakatimizda ilk bor yoshlar ishleri agentligi, hamkor vazirlik va idoralar tomonidan o'tkazilgan "Besh tashabbus" olimpiadasining birinchi mavsumida samarqandlik yoshlar 8 ta oltin, 5 ta kumush va 4 ta bronza medal jamg'arib, respublikada ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Musobaqalarda g'olib bo'lgan yoshlarning mahallasiga, ya'ni 24 ta mahallaga sport maydonchalari qurib berildi. Musobaqaning ikkinchi mavsumida esa yoshlarimiz 8 ta oltin, 9 ta kumush, 8 ta bronza

medalini qo'lga kiritdi va 25 ta mahallada sport maydonchalari barpo etiladigan bo'ldi.

- Mahallalarda yoshlar muammolariga qanday yechim topildi?

- Yoshlarni qo'llab-quvvatlash jarayonida faqat madaniy, ma'naviy-ma'niy tadbirlar o'tkazish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish bilanagina cheklanib qolmagan. Mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi bilan birga, hokim yordamchisi va xotin-qizlar faoli lavozimlarining joriy etilishi mahalla institutiga qulay imkoniyatlar yaratdi. Masalan, hokim yordamchisi mahallada kambag'allikni qisqartirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga e'tibor qaratdi. Yoshlar yetakchisi mahallada yoshlar balansini shakllantirdi. Xotin-qizlar bo'yicha mas'ul mahalladagi ayollar masalalari va ularning dardu tashvishi bilan ishlashga birlashtirildi.

Jumladan, "Yoshlar daftari"dagi 23 ming 255 nafar yigit-qizga 50 milliard so'mlik ko'mak ko'rsatildi, 16 ming 827 nafar yoshga 5068 gektar yer maydoni ajratildi. Bandlik markazlari yo'llanmalar orqali 14 ming 176 nafar yosh doimiy, 854 nafar ishsiz yosh turli joylarga kvotalangan ish o'rinlariga joylashtirildi. Shuningdek, 3149 nafar yigit-qiz vaqtinchalik haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 448 nafar yoshlar xonadonlarida issiqxonalar tashkil etilib, sug'orish uskunalari va urug'lik yetkazib berildi. 2198 nafar yoshlar ijtimoiy muhofazaga olinib, ular-ga ishsizlik

medalini qo'lga kiritdi va 25 ta mahallada sport maydonchalari barpo etiladigan bo'ldi.



nafaqasi tayinlandi.

Bundan tashqari, daftardagi 1284 nafar yigit-qizga 1,4 milliard so'mlik bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi, 520 nafariga haydovchilik guvohnomasi xarajat uchun 615 million so'm mablag' to'lab berildi va 4793 nafar yoshlarning kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo'naltirildi.

- Keyingi paytda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik ko'paydi. Buning sabablari tahlil qilinayotmi?

- Ha, to'g'ri, jinoyatlar avvalgi yillarda nisbatan oshgan. Lekin jinoyat sodir etilmagan mahallalarimiz ham ko'p - 671 ta mahallada jinoyat qayd qilinmagan. Sariq to'fadagi 24 ta mahallada jinoyat kam kuzatilgan. O'tgan yil mahallalarda yosh-

lar jinoyatchiligining barvaqt oldini olish maqsadida 2793 nafar yoshlardan iborat "Qalqon" yoshlar guruhlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Harbiy qismlarda "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazilib, 2655 nafar tarbiyasi og'ir yoshlar bilan alohida ishlendi.

Ichki ishlar, mudofaa boshqarmalari bilan birgalikda "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhi faoliyati tizimli yo'lga qo'yilib, kelgusida viloyatdagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha zarur choralar ko'rilmoqda. Shuningdek, tarbiyasi og'ir yoshlar bilan ishlash maqsadida "Bir nuroniyga 10 nafar yosh" loyihasi doirasida viloyatda 12 ming 286 nafar tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil yoshlar 1305 nafar nuroniyga birlashtirildi va kasb-hunar, tadbirkorlikka yo'naltirildi. Joylarda "Uch avlod uchrashuvi", "Hokim va yoshlar uchrashuvi" hamda "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" tashkil etilib, yigit-qizlarning muammolariga yechim topildi.

Haftaning juma kuni harbiy vatanparvarlik kuni sifatida e'lon qilinib, viloyatdagi barcha mahalla fuqarolar yig'inlaridagi yoshlar yetakchilari tomonidan tadbirlar uyushtirildi.

- Tegishli hujjatga ko'ra, boshqa hududlardan kelib o'z faoliyatini olib borayotgan yetakchi uchun bazaviy ishlash miqdorining 2 baravarigacha bo'lgan miqdorda turarjoy ijara to'lovi qoplab beriladi. Samarqandda nechta shunday yetakchilar bor?

- Viloyatdagi mahallalarda 68 nafar yetakchi boshqa hududlardan kelib ishlaydi. Xususan, Samarqand shahriga kelib ishlaydigan yetakchilar soni 63 nafarni tashkil etadi. Shaharning hududi katta va mahallalar soni ko'p. Shuning uchun boshqa hududlardan kelib ishlaydigan yetakchilar soni ko'proq. Shuningdek, Samarqand tumanida 3 nafar, Past Darg'om va Qo'shrabot tumanlarida 1 nafardan yetakchi boshqa hududdan kelib ishlaydi va ularga belgilangan tartibda turarjoy ijara to'lovi to'lab berilmoqda.

- Bir yillik faoliyati davomida yetakchilarning qanchasi ishdan ketdi?

- Bugungi kungacha 112 nafar yetakchi turli sabablarga bilan ishdan ketdi. 81 nafari o'z arizasiga ko'ra ishdan bo'shagan bo'lsa, 31 nafari yuqori lavozimlarga ko'tarildi. Shuningdek, har chorakda yuqori natijadorlikka erishgan 9 nafar yetakchi bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV suhbatlashdi.



Xotira

Taniqli olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofoti laureati Mo'minov Tolib Musayevich hayot bo'lganida 80 yoshga to'lardi.

Olimlik baxti

O'zbekiston Milliy universitetida mazkur sanaga bag'ishlab o'tkazilgan tadbir-da olimning safdosh do'stlari va shogirdlari, yurtimizning taniqli olimlari akademik Tolib Mo'minovning hayoti va ilmiy-pedagogik faoliyati, xususan, O'zbekistonda yadro fizikasi fani va ta'limiga qo'shgan ulkan hissasi, insoniylik fazilatlarini to'g'risida so'z yuritildi.



laureatlari I.Frank, P.Cherenkov, akademiklar Ye.Velikov, G.Flerovlar yuksak baho bergan.

Olimning yadro fizikasi sohasidagi tadqiqotlari hukumat va jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi, 1977-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan hamda 1994-yilda O'zFAning muxbir a'zosi va 2000-yilda O'zFA akademigi etib saylangan, 2003-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan, Xalqaro Birlashgan Yadro tadqiqotlari instituti Olimlar Kengashiga a'zo va institutning faxriy doktori etib saylangan.

Tolib Mo'minov ToshDU Amaliy fizika ilmiy tadqiqot institutida direktor va Samarqand davlat universitetida rektor lavozimida faoliyat yuritgan davrlarda ilmiy tadqiqot ishlarini oliy malakali kadrlar tayyorlash bilan hamohang ravishda olib bordi. Universitetda rektorlik vaqtida ustozning bevosita tashabbusi bilan fizika-matematika ta'lim yo'nalishlarida iqtidorli guruhlar (elita) tashkil etildi va hozirda bu guruhlarda o'qiganlarning aksariyati fan doktorligi ilmiy darajasini olib, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonimizda Mo'minovlar sulolasini, tom ma'noda fiziklar oilasini bilmaydigan ziyoli bo'lmas kerak. Urush yillarida Samarqand davlat universitetini qayta tiklashga rektor lavozimida bosh-qosh bo'lgan professor Muso Mo'minov mamlakatimizda yadro fizikasi fani va ta'limining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan fizik edi. Uning farzandlari - Maqsud, Tolib, Kamol Mo'minovlar ham ota izidan borib, taniqli fizik olimlar bo'lib yetishdi.

Hasan Basriy rahmatullohi alayh "Olim vafot etsa, qiymatgacha o'rni to'lmaydigan bo'shliq paydo bo'ladi", deb bejiz aytmagan ekanlar. Yillar o'tishi bilan Tolib Mo'minovning o'rni, qadri bilinmoqda. Lekin ustozning ishlarini isobek Xolboyev, Umar Salixbayev, Anvar Inoyatov, Asqar Safarov kabi o'ttizdan ortiq shogirdlari davom ettirmoqda.

Mo'min QODIROV.

Inson yashar ekan albatta atrofidagilar bilan muomala qiladi, aloqa o'rnatadi. Bu bog'lanishsiz inson jamiyatda yashay olmaydi. Shu sababdan ularning bir-birlariga ehtiyoji bo'ladi. Kimlarningdir ma'naviy, iqtisodiy, jismoniy yoki boshqa turdagi ko'magi va yordamiga muhtojlik sezasi. Shu lahzalarda insonning qadr-qimmatini, kimligi va qandayligi namoyon bo'ladi. Bu holat yaqinda yurtimizda kuzatilgan anomal sovuq kunlarda yaqqol sezildi.

Ayozli kunlarda aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj, ehtiyojmand qatlamiga yordam ko'rsatish maqsadida hokimliklar, yirik tashkilotlar va tadbirkorlar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh va ko'mir tarqatildi. Sinovli kunlardagi bunday xayriyalar tahsinga loyiq albatta. Ammo jarayonni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish, ommaga jar solish ommalashib ketgandek nazariyda.

Bir tanishim shunga o'xshagan holatni

Xayr-saxovat yurakdan qilinadi, ko'z-ko'z uchun emas



aytib qoldi. O'g'lim birinchi guruh nogironi. Hozir katta yigit bo'lib qolgan. Ko'pchilikning oldida nogironligi haqida gapirilsa, ko'ngliga olib, xafa bo'ladi. Kecha imkoniyati cheklangan fuqarolar holidan xabar olib

yurgan bir guruh mutasaddilar uyimizga oziq-ovqat, kiyim-kechak olib kelishibdi. O'g'lim ularning oldiga chiqmayman, deb turib oldi. Zo'rg'a esdalik uchun suratga tushishga ko'ndirdim.

Rosti, mutasaddilarning sovuq kunlarda yo'qlab kelganidan, yordam berayotganidan xursand bo'lgandik. Lekin o'g'lim o'zining aravachadagi suratini ijtimoiy tarmoqda ko'rib, rosa xafa bo'ldi, yig'ladi. To'g'risi, o'zim ham ranjdim. Faqat esdalikka suratga tushamiz, deyishgandik. Lekin arzimagan muruvvatni olamga jar solishibdi. Bizga bunaqa soxta muruvvat, minnatli non-osh kerak emas...

Aslida aytib qilingan yaxshilik minnat. Axir saxovat, xayriyalar har bir kishining dilida bo'ladi, ko'z-ko'z qilinmaydi. Xalqimizda minnatli osh tatimas degan hikmat bor. Mayli, bu kimgadir hisobot uchun kerakdir, lekin imkoniyati cheklangan, xasta kishilarning uyiga biror narsa olib borib, uning ruxsatsiz suratga, videoga tushirib, ijtimoiy tarmoqda tarqatish orqali ko'ngli kemti insonning dilini og'ritish qanchalik to'g'ri?

F.RO'ZIBOYEV.

Zamonaviy ta'limda ustoz-shogird an'anasi

Maktablarda avvaldan ustoz-shogird an'anasi mavjud. Bunda yangi ishga kelgan yosh o'qituvchi tajribali o'qituvchiga birlashtiriladi. Tajribali o'qituvchi sinfni boshqarish, dars va to'garak mashg'ulotlarini qiziqarli o'tish kabi metodlarni o'rgatadi. Yangi mutaxassisi faqat ish bilan ta'minlash emas, balki sifatli ta'lim berishiga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim tizimida islohotlar amalga oshirilmoqda, shuning uchun o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lgan holda o'zgarish va yangiliklardan hadiksiramassligi, aksincha o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi. Eng asosiysi, u ushbu o'zgarishlarni tushunib yetishi kerak. Yosh o'qituvchi dars o'tish metodikasini nazariy bilsa-da, hali amaliyotda qo'llamagan bo'lsin o'qituvchining psixologik va fiziologik jihatlari e'tibor berishi lozim. Bunda tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishiga to'g'ri keladi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar yosh pedagog o'quvchining ota-onasi bilan tanishsa, hamkorlikka

chaqirsa, tezda o'quvchilar bilan do'stlashib ketadi. Natijada o'quvchi, o'qituvchi, ota-onalar o'rtasida o'zaro hurmat paydo bo'ladi. Bu munosabat, eng avvalo, ta'lim sifatini oshiradi.

Ustoz-shogird an'anasida bir soatlik darsga tayyorgarlik ko'rish tajribasi ham yosh o'qituvchining malakasini oshiradi. Bunda har ikki o'qituvchi bir varaqdan oq qog'oz olib, mavzuga doir bilimni yozadi. Ustoz va shogird birlashtirilgan fikrlari tushirilgan qog'ozlarni o'qiydi, tahlil qiladi, ular oson yo'l bilan mavzuni o'quvchilarga yetkazishga kelishib oladi. Bunda ustoz-shogird to'ldirilgan varaqlardan bitta mukammal reja tuzadi. U bir soatlik dars o'tish qo'llanmasiga aylanadi.

Biz maktabimizga ishga kelgan yosh o'qituvchilarni ko'p yillik tajriba va malakaga ega o'qituvchilarga birlashtiramiz. Ustoz-shogird an'anasi asosida o'quvchilarga mavzuni yetkazish, ular bilan do'stona ishlash sirlarini o'rgatamiz. Ta'lim tizimida ba'zi uslublar eskirishi mumkin, ammo bu an'ana eskirmaydi.

Nasiba ROFEYEVA,

Samarqand shahar 62-umumta'lim maktabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari.

Ko'rgan, eshitganlarim

Puldan ko'ra kitob tarqatsa edi



- Eshitdingmi, falonchining to'yi zo'r o'tibdi, isrofgarchilik ham bo'lmabdi, kamchiqim qilib o'tkazibdi. Eng qizig'i, hamma-ga kitob tarqatibdi.

- Qo'ysang-chi. Hozirgi to'ylar shuncha nazorat qilinsa ham dabdabali bo'lyapti-ku, kitob tarqatibdi, deysanmi, bo'lmagan gap. Hozir pul sochish avjiga chiqqan, kim ham kitob tarqatardi?

Ha, albatta, Toshmat akaning gapida jon bor. To'ylarda pul sochish yana avj oldi, uning o'rniga rostdan ham kitob tarqatilsa-ya.

Bir to'ya kim o'zarga pul sochish boshlansa, kamida 2-3 million so'm artistning cho'ntagiga, o'zginasi yugurib yurgan bolalarga tegadi. Shuning o'rniga kitob tarqatsa-chi, qancha insonlarga ma'naviyat ulashgan bo'lardi.

Bitta kitobning o'rtacha narxi 30 ming so'm deyilgan bo'lsak, to'ygga kelgan 100 nafar mehmonga ulashiladi. Ularning oilasida o'rtacha 3 nafardan odam bo'lsa, kitobdagi ma'lumotlar 300 nafarga, ular ham yaqinlariga ulashsa-chi... Ko'rdingmi, qancha insonlarga bilim, ilm, ma'naviyat ulashgan bo'lamiz.

Pul sochishga keladigan bo'lsak, pulning ham uvoli uradi-ku! To'qlikka sho'xlik, boyligni ko'z-ko'z qilish shartmikan? Puling ko'p bo'lsa, yaqiningga, yetimga, kambag'alga ber.

Ba'zi to'ylardagi ortiqcha sarf-xarajatlarni hisoblasa, ularning puliga menimcha yuzlab maktab kutubxonalarini kitobga to'lsa kerak.

Husan HUSHYOR.



IMTIYOZLARIDAN XABARDORMISIZ?

Soliq kodeksining 379-moddasiga asosan, quyidagilarning daromadlariga soliq solinmaydi:

- chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa yoki mamlakatda doimiy yashamasa, O'zbekistondagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- chet davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular mamlakat fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekistonda doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

- chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasidagi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekistonda doimiy yashamasa, o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

- xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari - agar ular O'zbekiston fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha.

Viloyat davlat soliq boshqarmasi axborot xizmati ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Pulatov Lutfulla Shukurovichga (2022-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharohasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Mnatiskanova Anait Sergeyevnaga (2021-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan

lan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ismailov Azzam Sunnatovichga (2019-yil 19-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharohasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum

Ismailova Matluba Xaydarovnaga (2021-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Norboyev Utkir Maxamatovichga (2021-yil 25-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Sherboyev Mustafokulga (2021-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Egamberdiyev Naim Boyonovichga (2020-yil 25-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek

Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Raufova Marufatga (2000-yil 26-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI Samarqand shahridagi "TAMARIS" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 202379834) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazidan 2017-yilda Ochilova Shabnam Olimdjonovna nomiga berilgan ro'yxat raqami 7414, QT-424 raqamli sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGAN MUKOFOTI Fuqaro Rizayev Odil Ibragimovichning haydovchilik guvohnomasi (UZ-SA 003992, 23.11.2021-yilda berilgan) hamda "Samarqand hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJga qarashli davlat raqami 30 AA 517 bo'lgan "Boreks-2302" rusumli traktorning texnik pasporti Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatlarni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz. Telefon: +99891-543-58-78.

Alisher Navoiy tavalludining 582 yilligi oldidan

Zamon, makon va inson munosabatlari faylasufi azaldan qiziqtirib kelgan abadiy mavzu. Inson muayyan makonda yashashi haqidagi ustuvor fikr, albatta, buzilmas qonuniyat. Ammo buyuk o'zbek mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarini e'tibor bilan mutolaa qilsangiz, ushbu aqidaga kishida shubha paydo bo'ladi. Go'yo Navoiy o'rta asrlarda emas, biz bilan birga, bizning davrimizda yashayotgandek tuyuladi.

BIZ BILAN BIRGA, BIZNING DAVRIMIZDA YASHAYOTGANDEK



ko'ramiz. Ular tanasiga maxsus yog' surtib olishgani uchun olov hech qanday ta'sir qilmaydi. Ulug' mutafakkir shoir ijodidan bunday g'aroyib, bugungi kunda haqiqatga aylangan bashoratlarga yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Lekin bular hali hammasi emas. Alisher Navoiy ijodida shunday bir olamshumul kashfiyotlar borki, ular hali oxirigacha izohlab berilgan emas. Shulardan biri uning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari-da namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, buyuk shoir o'zining ko'pgina asarlarida odil hukmdor timsolini ulug'lab, orzu qilib yozdi. Bolalikdagi do'sti, keyinchalik Xuroson podshohi Husayn Boyqaroni adolati va ma'rifati hukmdor qiyofasida ko'rish orzusi bilan yashadi. Astrobdan Husayn Boyqaroga va boshqa amaldorlarga yozgan maktublarida ularni insof va adolatga chaqirar, davlat idora usulida shariat qonunlari ustuvorligini ta'minlash hamda ayrim islohotlar o'tkazishga undar edi. Ammo o'sha davrda Alisher Navoiyning istaklari to'la amalga oshishi qiyin, balki imkonsiz edi. Hassos shoir, ulug' siyosiy arab Navoiy buni umrining oxirlarida batamom anglab yetdi va bu boradagi siyosiy qarashlarini yana bir o'lmas asari bo'lmish "Lison ut-tayr"da mazmunli qilib ifodalab berdi.

"Lison ut-tayr" "Xamsa"dan 14 yil keyin, 1498-1499 yillarda yaratilgan. Bu asarini shoir Foniyl taxallusi bilan yozgan. Ko'pchilik Navoiy faqat forsiy zabondagi asarlarini Foniyl taxallusi bilan yozgan deb, xato o'ylaydi. Shoir forsiy va turkiyl tildagi asarlarini Navoiy hamda Foniyl taxalluslari bilan yozgan. Uning "Lison ut-tayr" dostonini Foniyl taxallusi bilan yozishi sababiga kelsak, bu davrda shoirning hayoti keksalikka yuz tutgan, aniqrog'i, bu dunyosidan ko'ra ko'proq u dunyosini o'ylay boshlagan edi. Shu bois Foniyl - o'lkinci degan nomni tanlagan bo'lsa ajab emas. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigan - Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'bir bilan aytganda, "tarjima rasmi bila" yaratgan she'riy mo'jizasi edi.

Bir qaraganda dostonidagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdagi imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalari bo'lib ko'rinadi. Hudhud degan qush nomidan so'ylangan yuzlarcha hikoyalar tasavvufiy mazmunda bo'lib, ular hammasi hayotiy va bir-biridan qiziqarli. Insonning ulug'vorligini majoziy uslub, ta'sirli, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar bilan bog'lab tasvirlangan. Qushlar Hudhud rahnamoligida afsonaviy adolati hukmdor Simurg' qushini izlab, uzoq va mashaqqatli yo'lni ixtiyor qiladilar. Bu yo'ldagi yetti voddoydan o'tguncha, ular ko'p sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Ko'plari bu xatarli yo'lda qiyinchiliklarga bardosh berolmay halok bo'lib, oxirida sanoqli o'ttizta qush manzilga eson-omon yetib borishadi. Shunda qushlar Hudhudan: "Mana, manzilga yetib keldik, qani sen aytgan o'sha odil hukmdor Simurg' qushi?", degan savolni qo'yishadi. Shunda Hudhud quyidagi javobni beradi: "Simurg' - bu o'zimiz, si - o'ttiz, murg' - qush, ya'ni, adolati Simurg' o'zimizda mujassam".

Bu so'zlarning qalanga olinganiga ko'p asrlar bo'ldi. Ammo faqat bugun insoniyat odil podshohlar haqidagi hikoyalar shunchaki shirin afsona ekanligini anglab yetmoqda. Faqatgina xalq o'z-o'zini idora qiladigan demokratik boshqaruv usuligina adolati bo'la olishi mumkinligi hazrat Navoiydan bir necha asr keyin qayta kashf etildi. To'g'ri, bu haqda yunon mutafakkirlari va sharq faylasuflarining asarlarida ham aytilgan. Lekin Navoiygacha demokratik ko'zqarashlarni hech bir ijodkor timsollar vositasi bilan bunalchalik chiroyli va yorqin ifoda qilib berolmagan. Bugun qaysi bir rivojlangan demokratik mamlakatning asosiy qonunini olib qarasangiz, qomus boshida xalq irodasi davlat boshqaruvi asosi ekanligi yozib o'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dastlabki ikkinchi muddasida ham davlat xalq irodasini ifoda etishi aniq-tiniq qilib bitib qo'yilgan.

Xudoyberdi KOMILOV, siyosiy sharhlovchi.

Insonlarning yaxshisi insonlarga manfaatlidir

Yurt tinchligi muhofazasi - mas'uliyati kasb. Mamlakat ravnaqida tinchlik qanchalar zarur omil bo'lsa, uning mustahkamligi uchun kechayu kunduz Vatan sarhadlarini qo'riqlaydigan posbonlar xizmati shunchalik muhim.



Zamonlar, makonlar o'zgarasa-da, Vatanga muhabbat mohiyati aslo o'zgaraymaydi. Bu mavzu so'z borar ekan, Temur Malik, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug' yurtparvarlar, Vatan ozodligi yo'lida qo'lida tig' va tug' ila Jon bergan Shayx Najmiddin Kubro, Vatan hajrida o'tgan Bobur Mirzo ibrali ko'z oldimizga keladi.

Islom dini ta'limga inson o'zi yashab turgan vatani, dinini, oila ahlini himoya qilishi eng ulug' amallardan ekanligi ta'kidlangan. Mas'uliyatli yurt posbonlari qanday mukofotga loyiqligi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning "Bir kun Alloh yo'lida murobata (dushmanidan ogoh turib poyloqchilik) qilish dunyo va uning ustidagi narsalardan yaxshiroqdir", degan so'zlarida o'z ifodasini topgan (Buxoriy va Muslim rivoyati).

Vatanni himoya qilish, bu yo'lda xizmat qilish, nafaqat or-nomus, yigiltik burch, balki sharaf va mas'uliyatdir. Albatta, yurt tinchligi uchun zahmat chekayotgan jonkuyarlarining mehnati tinchlik davrida yarq etib ko'zga ko'rinavermaydi. Hozirgi kunda Vatanimiz sarhadlarini himoya qiladigan mard va zabardast yoshlarni, ularning harbiy salohiyati va qobiliyatlarini ko'rib, xotirjam bo'lamiz.

Vatanni himoya qilish - bu faqat qo'lga qurol olish emas, balki uning moddiy va ma'naviy boyliklarini, ulug' ajdodlardan bizga meros bo'lib qolgan an'analarini, tilimizni, dinimizni, tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrashdir. Qanchadan-qancha amallar borki, ko'rinishidan oddiy ishga o'xshagani bilan savobi ulug' bo'ladi. Xuddi shu kabi harbiy xizmat ham ana shunday savobli, zarur amallar qatoriga kiradi.

Ona yurtda tinchlik va osoyishtalik barqaror, sarhadlarimiz mustahkam ekan, xalqimiz ko'ngliga shodu xurramlik sig'adi, toat-ibodatlar emillikka ado etiladi.

Nodirxon MALLAYEV, Samarqand shahar Ruhobod jome masjidi imom-xatibi.

Mulohaza uchun mavzu

MULK TALASHGAN QARINDOSHLAR

Yo'qlikdan, to'qlikdan yoki ilmsizlikdanmi?

- Amakim bilan qo'shni yashaymiz, - deydi payariqlik murojaatchi. - Otam o'tgandan keyin uy-joyimiz menga meros qoldi. Bizga yer ajratish uchun hokim qarori, kadastr yig' ma jildi va hattoki, davlat xizmatlaridan ro'yxatdan ham o'tgandik. Yaqinda amakim hovlisini devor bilan o'rash paytida bizni hovlimizga tegishli yerdan ham ancha qismini egallab oldi. Unga bir necha bor tushuntirdim, uy-joyning kadastr hujjatlari borligini, bu qonunga to'g'ri kelmasligini aytдим, ammo amakim "O'zaro kelishuv bo'lsa bo'ldi, kadastr nimaga kerak, senga buncha yer nega kerak? Mening yangi qurgan uyimning "plani" to'g'ri chiqishi uchun yer kamlik qilyapti", dedi. Otam o'tib ketgan bo'lsa, meni suyanchig'im yo'q. Amakim qarindosh bo'lsa, men u bilan yer talashishim el oldida uyat emasmi?



Shu tumandan bildirilgan yana bir murojaatda ham uning kadastr hujjati, hokim qarori va mulk davlat xizmatlari markazi orqali ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa-da, boshqa fuqarolar tomonidan o'zboshimchalik bilan o'zlashtirilgani bildirildi. Men boshqa tumanda ishlayman va oyda ikki marotaba uyga kelaman, ayolim ham davlat ishida ishlaydi, farzandlarim maktabda o'qiydi, - deydi yana bir murojaatchi. - Bir paytlar qishloqlarda o'lchab berilgan uchastkaga daladan yana qo'shib olish ayl olingdi. Bizga o'lchangan yerdan keyin fermerning maydoni boshlanadi, ularning har qarich yeri hisobli. Xullas, bizdan oldingi qator-dagilar yo'lning hisobidan bir necha metr yerni o'zlarining uchastkasiga qo'shib oldi. Yo'l esa kichraydi. Odam bor joyda to'y-ma'raka bor, dedim-da bir necha yil oldin o'z hisobimdan ikki metrga yaqin yerni yo'lga qo'shdim. O'tgan yili shu ko'chada yashovchilar biz uyda yo'qligimizda o'zboshimchalik bilan tomorqamdagi daraxtlarni kesib, yana ancha yerni yo'lga qo'shibdi. Ishdan kelib, yerni joyiga to'g'rilab qo'ysam, ular yana shu yerni yo'lga qo'shibdi. Xullas, ular bilan ancha vaqt nizolashib yuridik. Mahalla raisi ham mahalla noziri ham keldi, lekin ular yo'lni haqiqatda o'zlashtirganlarni yoqlashdi, birortasi uy hujjatini so'rashmadi ham. Men

endi yo'lga qo'shilgan yer uchun ham soliq to'layapman. Ishongan vakillar xalqni aldasa, oddiy odamlar kimga ishonadi? Lekin meros nizosi bir taraf ikkinchi tomonning qonuniy huquqlarini tan olishi bilan bog'liq. Sudning qonuniy hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin ham nizo barham topmagan holatlar bor. Afsuski, faqat sudning adolati qarori bilan qon-qarindoshlar munosabati yaxshi bo'lib qolmaydi.

Meros masalasi deyarli hamma xalqda, qavmlarda bor masala.

Islom dinida merosning shartlari tushunchasi aniq bayon etilgan. Unga ko'ra, "shart" - shunday bir narsaki, agar u mavjud bo'lmasa, unga bog'liq voqe'lik kelmaydi va u mavjud bo'lsa, o'sha voqe'lik mavjud bo'lishi ham, mavjud bo'lmasligi ham mumkin.

Merosda uchta shart bor. Ular meros qoldiruvchining o'limi, meros qoldiruvchining vafotidan so'ng merosxo'ring hayot bo'lishi va meros oluvchining meros qoldiruvchiga nisbatan kim ekanligi aniq bo'lishi va nasabi tayin bo'lishi. Meros deganda vafot etgan shaxs o'zidan keyin qoldirgan moddiy boyliklar ko'zda tutiladi. Islomdagi meros shartlari qonunchiligimizda ham aks ettirilgan. Biroq achinarli jihati shundaki, zamonaviy hayotda meros mulkini talashayotganlarning aksariyatini katta yoshlilar tashkil etadi. Bunday bir-biriga yaqin qarindosh bo'lgan yoshi ulug' insonlarning nizolashib yurishi oqibatida, hatto ularning farzandlari o'rtasidagi munosabatlarga ham putur yetmoqda. Shunday ekan, meros bilan bog'liq nizolar nafaqat huquqiy, balki ma'naviy muammo hamdir.

Shu masalada gap ketganda "Chet elda hammasi zo'rda, santimetrgacha aniq, birov boshqaning mulkiga rahna sololmaydi", deyishadi. To'g'ri, lekin ularda ham bir paytlar shundan muammolar bo'lgan. Keyinchalik barchasiga qonuniy tarzda yechim topilgan. Biz esa meros, mulk talashib yosh avlodga buni "meros" qilib qoldiryapmiz. Shu kabi holatlar ko'pymasligi va qarindosh o'rtasida nizolar kuchayishining oldini olish uchun ham qonunchilikni kuchaytirish, har kimning tasarrufidagi yer-mulkini aniqlashirish, noqonuniy o'zlashtirilgan yerlar bo'yicha qonuniy yechim topish zarur.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

HAYOT SABOQLARI. Aqlning qaymog'i - fikr. Fikrning qaymog'i esa - mantiq. Kishining bilim saviyasini uning bergan savolidan bilsa bo'ladi. O'zganing daromadini hisoblab yurish fosiqlikdir. Dushmanim xafa bo'lmasin, desang, uning oldida muvaffaqiyatingdan so'z ochma. Kishining sen haqingda salbiy yoki ijobiy fikrda ekanligini uning ko'z qarashi oshkor qilib qo'yadi. Yashirin so'zning zamirida zahar bo'lganidek, xushomadning zamirida hasad bo'ladi. O'rinboy NORMATOV.

MATBUOT UYI Zarafshon. MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi. Bosh muharrir: Farmon TOSHEV. Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. NASHR 100. Indeks 438, 16 601 nusxada chop etildi, Buyurtma 39, Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2. Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi. QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56. BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61. MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi. Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV. Navbatchi: O'.XUDOYBERDIYEV. Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV. Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00. Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling. ISSN-201667X. 9 772010 1667009. Sotuvda narxi kelishilgan holda.